



XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 3-fevral

VII-6-23-6-0-K/25

Namangan viloyati

Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi yuzasidan ochiq muhokama o'tkazish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi 781-son qaroriga asosan Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Mamay, Olmazor, Soy bo'yi, Tinchlik, mahalla fuqarolar yig'inlarida joylashgan, mulkdorlarning yer uchastkalarini olib qo'yish bo'yicha tashabbusni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq, Xalq deputatlari viloyat Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Yangiqo'rg'on tuman hokimligining Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Madaniyat, Mamay, Olmazor, Soy bo'yi, Qizilyozi mahallalarida joylashgan 3 ta turar joy, 2 ta "Dam olish maskani" binosi, 5 ta dehqon xo'jaligi hamda 2 ta xususiy bog' yer maydonlari jami 12 ta mulkdorlarning yashash xonadonlari, dehqon xo'jaliklari yer maydonlari va noturar obekti yer uchastkasini olib qo'yish bo'yicha tashabbusi ma'qullansin.

2. Yangiqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida Madaniyat, Mamay, Olmazor, Soy bo'yi, Qizilyozi mahallalarida joylashgan 3 ta turar joy, 2 ta "Dam olish maskani" binosi, 5 ta dehqon xo'jaligi hamda 2 ta xususiy bog' yer maydonlari jami 12 ta huquq egalari bilan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-tamoillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari asosida ochiq muhokama o'tkazilishiga rozilik berilsin.

3. Yangiqo'rg'on tuman hokimi (A.Najmiddinov)ga:

- tumandagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan mulkdorlarni to'liq o'rgangan xolda ochiq muloqatda xar birini ishtirokini ta'minlash;

- ochiq muloqot yakuniga ko'ra amaldagi tartib qoidalari asosida tuman bayonnomasini tuzish;

- bayonnomaga ochiq muxokamada ishtirok etgan tashabbuskor hamda huquq egalarning (ular vakillarining) ro'yxati, shuningdek ochiq muhokama jarayonining audio va video yozuvi ilova qilinishini to'liq ta'minlash;

- ochiq muloqot tarzida tayyorlangan bayonnoma Xalq deputatlari viloyat kengashiga taqdim etish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida viloyat hamda Yangiqo‘rg‘on tuman hokimliklariga yuborilsin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari I.Raxmatov ushbu qaror viloyat va Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligining rasmiy veb-saytlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to‘liq hajmda e‘lon qilinishini ta‘minlasin.

6. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta‘minlash tuman hokimi A.Najmiddinovga zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikramov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



MUMINOV SOLIJON
DJALILOVICH